

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
TEXNOLOGIYALARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI PHD.18/30.11.2022.T.153.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

YAKIBOVA DILAFRUZ XUSNITDINOVNA

**METALLURGIYA GAZLARIDAN SULFAT KISLOTASI ISHLAB CHIQARISHDA
ISHLATILGAN VANADIYLI KATALIZATORLARINI KOMPLEKS QAYTA
ISHLASH**

11.00.05- Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**TEXNIKA FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the of doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

Yakibova Dilafruz Xusnitdinovna

Metallurgiya gazlaridan sulfat kislotalari ishlab chiqarishda ishlatilgan vanadiyli
katalizatorlarni kompleks qayta ishlash3

Якибова Дилафруз Хуснитдиновна

Разработка комплексной технологии переработки отработанных ванадиевых
катализаторов, производства серной кислоты из металлургических газов....23

Yakibova Dilafruz Xusnitdinovna

Comprehensive processing of vanadium catalysts used in the production of sulfuric
acid from metallurgy gases.....43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
TEXNOLOGIYALARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI PHD.18/30.11.2022.T.153.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

YAKIBOVA DILAFRUZ XUSNITDINOVNA

**METALLURGIYA GAZLARIDAN SULFAT KISLOTASI ISHLAB CHIQARISHDA
ISHLATILGAN VANADIYLI KATALIZATORLARINI KOMPLEKS QAYTA
ISHLASH**

11.00.05- Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**TEXNIKA FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2025.1.PHD/T3052 raqami bilan ro'yhatga olingan.

Dissertasiya Islom Karimov Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb sahifada (eco.ilm.uz) manzili bo'yicha va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Dadaxodjayev Abdulla Tursunovich
texnika fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Alimov Zikrilla Bobamuratovich
texnika fanlari doktori, kat.i.x.

Pulatov Xayrulla Lutfullayevich
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajasini beruvchi PhD.18/30.11.2022.T.153.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025 yil «24» oktabr da soat 14:00 da majlisda bo'lib o'tadi. Manzil: 100043, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 7a uy. (tel: (71) 277-69-83; faks: (71) 277-89-22; e-mail: ecoilm@gov.uz.)

Dissertasiya bilan Atrof-muhitni va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 5 raqami bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 100043, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 7a uy. (tel: (71) 277-69-83; faks: (71) 277-89-22; e-mail: ecoilm@gov.uz.)

Dissertasiya avtoreferati 2025 yil «10» oktabr kuni tarqatildi.

(2025 yil «13» yun dagi 4 raqamli resstr bayonnomasi).



B.A.Pulatov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash raisi t.f.d., dotsent

L.N.Samiyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash kotibi, t.f.d., dosent

Sh.O.Muradov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda barcha kimyo va neft kimyo sanoatlarida hosil bo'layotgan ishlatilgan vanadiyli katalizator chiqindilarni atrof-muhitga zararli ta'sirlarini kamaytirish maqsadida chiqindisiz qayta ishlash texnologiyalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. «Dunyo miqyosida ishlatilgan vanadiy asosidagi katalizatorlarning yillik ishlab chiqarilishi va chiqindiga aylanishi 100 ming tonna hosil bo'lishini hisobga olsak»¹, ishlatilgan vanadiyli katalizatorlar tarkibidagi vanadiy besh oksidini ajratib olish va chiqindisiz qayta ishlash, ularni sanoat miqyosida amaliyotga joriy etish zarur bo'lib, bu nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy jihatdan qimmatli metallarni qayta tiklash imkonini beradi, va bu jarayonni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan innovatsion texnologiyalar va ekologik xavfsiz ishlov berish usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni qayta ishlab, ularning tarkibidagi vanadiy oksidini ajratib olish maqsadida resurstejamkor texnologiyalar va texnik vositalarga asoslangan yangi ilmiy-texnik yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada ayniqsa gidrometallurgik usullar keng qo'llanilmoqda, chunki ular tayyor mahsulotning arzonligi va ekspluatatsiya qulayligi bilan ajralib turadi. Ishlatilgan katalizatorlardan vanadiyni sulfat kislotasi yordamida eritib ajratib olish esa eng iqtisodiy maqbul yo'l hisoblanadi, shuningdek, ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni qayta ishlashga jalb etish maqsadida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan vanadiyni samarali ajratib olish usullarini ishlab chiqish, iqtisodiy jihatdan samarali vanadiy oksidini ajratib olish texnologiyasini yaratish hozirgi kunda ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda va bu boradagi tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizdagi ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlarida amalga oshirilayotgan aniq va keng ko'lamli tadbirlar natijasida tarkibida rangli metallar mavjud bo'lgan ishlatilgan katalizatorlarni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish yo'nalishida muhim ilmiy natijalarga erishilmoqda, biroq hozirgi kunda sulfat kislotasi ishlab chiqarishda qo'llaniladigan ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni qayta ishlash bo'yicha sanoat miqyosidagi texnologiya hali ishlab chiqilmagan, ayni paytda ushbu chiqindilarning umumiy hajmi taxminan 250-300 tonnaga teng bo'lib, ular atmosfera yog'inlari va harorat ta'sirida eruvchan birikmalarga aylanib, tuproq, yer osti suvlari hamda atmosfera havosini ifloslantiradi, bu holat ushbu muammoning ekologik va iqtisodiy jihatdan naqadar dolzarb ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi va ularni bartaraf etish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi rivojlanish strategiyasining uchinchi yo'nalishida muhim vazifalardan biri sifatida «...milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirish, sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi

¹https://www.researchgate.net/publication/222429874_Spent_hydroprocessing_catalyst_management_A_review_Part_II_Advances_in_metal_recovery_and_safe_disposal_methods

ulushini oshirish va sanoat mahsuloti hajmini 1,4 baravarga ko'paytirish...»² bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, ishlatilgan vanadiy katalizatorlarini qayta ishlab, qattiq qoldig'idan sulfat kislotasi ishlab chiqarishda qo'llash uchun mos bo'lgan vanadiyli katalizator olishning samarali va iqtisodiy jihatdan maqbul texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi № UP-60 sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston rivojlanish strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni hamda 2019 yil 3 apreldagi № PP-4265 sonli «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va investitsiya jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020 yil 28 dekabrda № PP-4937 sonli «2021-2023 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2021 yil 13 fevralda № PP-4992 sonli «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va moliyaviy barqarorlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII – «Kimyoviy texnologiyalar va nano texnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi Ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni qayta ishlash, ularning samaradorligini oshirish, tarkibidagi qimmatbaho komponentlar, xususan V_2O_5 ni ajratib olish va regeneratsiya qilish, shuningdek SO_2 ni SO_3 ga oksidlovchi texnologik bosqichlarni takomillashtirish bo'yicha xorijiy olimlar, jumladan, I.P. Muxlenov, I.V. Vinarov, A.N. Seregin, G.A. Kolobov, V.N. Petrov, I.Y. Bezrukov J.M. Tarascon, Y.Nishi, X.Chen, S.Nunes, M. A.Brett, S. Khorfan, J. Mohanty, E. Romanovskiy va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borib ma'lum darajada samarali natijalarga erishilgan.

Vanadiyli katalizatorlarning samaradorligi, ularning sanoatdagi qo'llanilishi, ekologik xavfsizligi, tarkibiy tuzilmasi va qayta ishlash imkoniyatlariga doir ilmiy izlanishlar mamlakatimiz olimlari A.S. Xasanov, Sh.T. Tursunov, A.K. Karimov, R.M. Bazarov, T.M. Mirzayeva, B.R. Vohidov, N.R. Xaitov, F.F. Abdurahmonov, A.H. Mahmudov va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Shunga qaramay, mavjud ilmiy tadqiqotlarda metallurgiya gazlaridan sulfat kislotasi ishlab chiqarish jarayonida ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni chiqindisiz, ekologik xavfsiz utilizatsiya qilish, tarkibidagi qimmatbaho komponentlarni kompleks ajratib olish va qayta tiklash masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" Farmoni

dissertatsiya tadqiqoti I. Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish” kafedrası tomonidan tasdiqlangan “Sanoat chiqindilari, oqova suvlar va qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash, tozalash va zararsizlantirish jarayonlarini o‘rganish hamda ekologik xavfsiz texnologiyalarni ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlar rejasi doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi: Sulfat kislota ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan ishlatilgan vanadiy katalizatorlarini ekologik xavfsiz va chiqindisiz utilizatsiya qilish texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

ishlatilgan vanadiy katalizatorlarining atrof-muhitga, jumladan atmosfera havosi, suv va tuproq ekotizimlariga hamda tirik organizmlarga kompleks ta‘sirini o‘rganish;

ishlatilgan vanadiy katalizatorlarining tarkibini fizik-kimyoviy tahlil usullari orqali o‘rganish;

ishlatilgan katalizatorlardan vanadiy besh oksidini samarali olish texnologiyasini ishlab chiqish;

ishlatilgan vanadiy katalizatorlarini qayta ishlashdan so‘ng qoladigan qattiq qoldiqdan yangi vanadiy katalizatorini sintez qilish usulini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti: «OKMK» AJning rux va mis eritish zavodi, vanadiy katalizatorlari chiqindilari.

Tadqiqotning predmeti: Ishlatilgan vanadiyli katalizatorni utilizatsiya qilish jarayoni, ammoniy vanadatni vanadiy besh oksidiga oksidlash jarayoni, shuningdek, ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni qayta ishlashdan hosil bo‘lgan qattiq chiqindilar asosida yangi vanadiyli katalizator olish usulini ishlab chiqish.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot jarayonida vanadiyli katalizatorlarning tarkibini va xossalari aniqlash hamda tarkibidagi vanadiy besh oksidini ajratib olish maqsadida spektroskopik usullar, infraqizil spektrografik tadqiqotlar usuli, rentgen nurlari yordamida (XRD-6100) chang difraktometriya tahlili usullaridan, hamda qattiq qoldiqdan katalizator tayyorlash usuli va katalitik faolligini aniqlash usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mis ishlab chiqarishda ajralib chiqayotgan metallurgiya tashlandiq gazlaridan sulfat kislota olish jarayonida hosil bo‘ladigan ekologik xavfli, ishlatilgan vanadiyli katalizatorlardan vanadiy besh oksidini gidrometallurgiya usulida eritmaga o‘tkazishning eng maqbul texnologik parametrlari aniqlangan;

ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni qayta ishlash jarayonida hosil bo‘lgan ammoniy sulfovanadat eritmasidan ammoniy metavanadatni ajratib uni 600°C da 1,5 soat davomida termik parchalash yo‘li bilan vanadiy besh oksidini olish sxemasi ishlab chiqilgan;

qayta ishlash jarayonidan keyin hosil bo‘lgan qattiq qoldiqlardan ikkilamchi xom ashyo sifatida foydalanib, chiqindisiz ishlab chiqarish tamoyillariga mos yangi tarkibli, ekologik xavfsiz va yuqori faollikka ega vanadiyli katalizator sintez qilish usuli ishlab chiqilgan;

vanadiyli chiqindilarining atmosfera havosi va tuproq qatlamiga zararli moddalarning tarqalishini oldini olish maqsadida ilk bor xavfsiz utilizatsiya qilish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Vanadiyli chiqindi katalizatorlarni qayta ishlashda samarali texnologik parametrlar aniqlangan, ular asosida ekologik xavfsiz va resurs tejovchi texnologik jarayon ishlab chiqilgan; ishlab chiqilgan texnologiya asosida vanadiy besh oksidini ajratib olish sxemasi va material balansi shakllantirilgan. Ushbu texnologiyani qo'llash, vanadiyli chiqindilarni qayta ishlash samaradorligini oshirishi, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishi hamda chiqindilardan yangi tarkibli katalizator olish imkonini yaratishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi energiya-dispersiv rentgen-fluoresensiya tahlili (EDXRF, Rigaku Corp., EDXL300/NEX CG, IQ), vanadiy besh oksidining rentgen-strukturaviy tahlili, shuningdek, ishlab chiqilgan katalizatorlarning tajriba namunalarida olib borilgan katalitik faolligini aniqlash sinovlari orqali olingan ma'lumotlar bilan hamda tadqiqot natijalarining ishonchliligi xalqaro ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar bilan ham tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki vanadiy katalizatorlari chiqindilarini qayta ishlash jarayonini samarali tashkil etish, sanoat chiqindilaridan maksimal darajada foydalanish imkonini beruvchi ilmiy asoslar ishlab chiqilganligi, shuningdek, ushbu asosda yangi katalizatorlar olish texnologiyasi yaratilganligi, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qilishi va sanoat chiqindilarini qayta ishlashda innovatsion yondashuvlar hamda texnologiyalarni ishlab chiqishda qo'llanishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati toksik vanadiy katalizatorlari chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqishda atrof-muhitga zararli ta'sirni kamaytirish, katta maydonlarni egallagan chiqindilarni samarali boshqarish va ulardan qayta foydalanish imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Metallurgiya gazlaridan sulfat kislotasi ishlab chiqarishda ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni kompleks qayta ishlashning ilmiy asoslari bo'yicha olingan natijalar asosida:

metallurgiya tashlandiq gazlaridan hosil bo'ladigan ishlatilgan vanadiyli katalizator chiqindilarini qayta ishlash va undan vanadiy besh oksidini ajratib olish texnologiyasi ishlab chiqilgan (OKMK ma'lumotnomasi № 06-25/01-00833, 13.06.2025 yil). Mazkur texnologiya asosida yig'ilib qolgan hamda kelgusida hosil bo'ladigan vanadiyli katalizator chiqindilarini zararsizlantirishga yo'naltirilgan sanoat qurilmasi loyihasi "OKMK" AJning 2025–2026 yillarga mo'ljallangan istiqbolli loyihalar dasturiga kiritilgan va mazkur qurilmaning texnologik reglamenti ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, sanoat miqyosida chiqindilardan vanadiy birikmalarini ajratib olish va ularni qayta foydalanishga yo'naltirish bo'yicha amaliyotga joriy etish imkoniyati yaratilgan;

ishlatilgan vanadiyli katalizatorlardan vanadiy besh oksidini gidrometallurgiya usuli bilan ajratib olish texnologiyasi "OKMK" AJ Rux ishlab chiqarish sexi laboratoriyasida 2022 yil aprel–noyabr oylarida sinovdan o'tkazilgan (OKMK–TDTU dalolatnomasi, 13.02.2023 yil). Natijada, ekologik xavfli sanoat chiqindisi hisoblangan ishlatilgan vanadiyli katalizatorlardan vanadiy besh oksidini gidrometallurgiya usuli bilan eritmaga ajratishning optimal texnologik sharoitlari aniqlanib, u asosida samarali va ekologik xavfsiz qayta ishlash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

qayta ishlash jarayonidan hosil bo'ladigan qattiq qoldiqlardan ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish asosida yangi tarkibli vanadiyli katalizator sintez qilish usuli O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan rasmiylashtirilgan ixtiro patenti (IAP № 7744) bilan huquqiy jihatdan himoyalangan. Natijada, chiqindilarning miqdorini kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish hamda sanoat jarayonida hosil bo'ladigan qattiq chiqindilardan ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish orqali yangi tarkibli vanadiyli katalizatorlar sinteziga asoslangan, chiqindisiz texnologik yondashuv tamoyillariga mos keluvchi kompleks sanoat jarayoni ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Vanadiy katalizatorlari chiqindilarini qayta ishlash bo'yicha olingan natijalar 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida taqdim etildi va muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan 4 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi respublika ilmiy jurnallarida, 2 tasi esa xorijiy jurnallarda nashr qilingan. Ulardan 3 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan va SCOPUS xalqaro ma'lumotlar bazasida indekslangan jurnallarda e'lon qilingan. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan UZ IAP 7744 raqamli ixtiro patenti rasmiylashtirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to'rt bobdan, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, belgilar izohlari va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 126 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI.

Dissertatsiya ishining **kirish qismida** olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyotlar sharhi. Sulfat kislotali katalizatorlarni ishlab chiqarish va qo'llanishining hozirgi holati”** deb nomlangan **birinchi**

bobida O'zbekiston Respublikasida sanoat chiqindilarining atrof-muhitga ta'siri, xususan, sulfat kislota ishlab chiqarishdan hosil bo'ladigan vanadiyli katalizatorlar, ftor, og'ir metallar va boshqa zararli komponentlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Rasmiy hujjatlar va davlat qarorlarida chiqindilarni klassifikatsiyalash, ularni ekologik xavfsiz tarzda yig'ish, saqlash va utilizatsiya qilish masalalari belgilab berilgan. Vanadiy besh oksidi sanoat chiqindilari tarkibida mavjud bo'lib, atrof-muhitga kuchli toksik ta'sir ko'rsatadi. U yer, suv va havo muhitini ifloslantirib, tirik organizmlar salomatligiga jiddiy xavf tug'diradi. V_2O_5 nafas yo'llari, o'simliklar o'sishi va suv organizmlariga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun vanadiy tarkibli chiqindilarni ekologik xavfsiz usullar bilan utilizatsiya qilish dolzarb masaladir. Respublikada sulfat kislota ishlab chiqarishning amaldagi texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari, metallurgiya gazlaridan sulfat kislota ishlab chiqarish, oltingugurtdan sulfat kislota ishlab chiqarish, oltingugurt gazini sulfat angidridgacha oksidlash katalizatorlarining fizik-kimyoviy xususiyatlari va ularning faolligini kamaytirish, vanadiy katalizatorlarini olishning mavjud usullari va ishlatilgan katalizatorlardan vanadiyni ajratib olish usullari bo'yicha adabiyot manbalarining tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Tadqiqot obyektlari va usullari"** deb nomlangan **ikkinchi** bobida ishda foydalanilgan dastlabki xomashyo materiallarining xususiyatlari, tadqiqotlarni o'tkazish usullari, kimyoviy tahlil va fizik-kimyoviy tekshirish uslublari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Vanadiy besh oksidining massaviy ulushini titrimetrik usul bilan aniqlash va elementlar tarkibini energodispersiyali rentgenofluoresans usuli orqali o'lchash usullari bayon qilindi.

Ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni utilizatsiya qilinganda hosil bo'lgan qattiq chiqindidan yangi vanadiy katalizatorlar tayyorlandi va katalitik faolligi o'rganildi. Katalizator faolligini aniqlash uchun SO_2 oksidlanishi reaksiyasi laboratoriya sharoitida, izotermik pechda va oqimli usulda o'tkazildi.

Infraqizil spektroskopiya usuli bilan ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni va qattiq qoldiqni tuzilishi o'rganilgan. Namuna KBr bilan aralashtirilib, tabletka shaklida tayyorlanadi va IK nurlanish qabul qilinadi, so'ng spektr tahlil qilindi. Rentgen nurlarining difraksiya usuli (XRD) yordamida ajratib olingan vanadiy besh oksidini fazoviy tarkibi va kristall tuzilishi o'rganildi. Namuna mayda kukun holatiga keltirilib, rentgen nurlari orqali o'lchanadi va difraktogramma tahlil qilinadi.

Dissertatsiyaning **"Ishlatib bo'lingan vanadiyli katalizatorlarni utilizatsiya qilish jarayonining tadqiqi"** deb nomlangan **uchinchi** bobi ishlatilgan vanadiy katalizatorlari tarkibini o'rganishga, ularning ishlatilmagan katalizatorlarga nisbatan faolligini taqqoslashga, ishlatilgan katalizatorlardan vanadiyni ajratib olish va vanadiy besh oksidini olish tadqiqotlariga bag'ishlangan. Ishlatilgan vanadiyli katalizatorlardan vanadiyni ajratib olish jarayoni laboratoriya sharoitida olib borildi. Tadqiqotlar uchun V_2O_5 ga qayta hisoblaganda 4,34% vanadiyning massa ulushiga ega bo'lgan SVD ning ishlatilgan kontakt massasi qo'llanildi. 1-jadvalda "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ rux zavodining ishlatilgan va ishlatilmagan vanadiy


katalizatorlarining kimyoviy tarkibi ma'lumotlari keltirilgan. Vanadiy katalizatorlari tarkiblarini taqqoslash maqsadida ishlatilmagan SVNT markali katalizatorning tahlili o'tkazildi.

1-jadval

Ishlatilgan va ishlatilmagan vanadiyli katalizatorlarning tarkibi

Katalizatorlar	V ₂ O ₅ , %	Na ₂ O, %	Al ₂ O ₃ , %	SiO ₂ , %	SO ₃ , %	K ₂ O, %	Fe ₂ O ₃ , %	ZnO, %	CaO, %
IVK	4.34	2.96	1.18	48.9	22.3	7.20	2.06	0.476	0.158
Ishlatilmagan katalizator	5.45	1.45	0.696	69.6	14.0	7.26	0.557	0.01	0.351

OKMK AJ rux zavodidagi ishlatilgan vanadiy katalizator va ishlatilmagan katalizatorlarning kimyoviy tarkiblarini taqqoslash natijasida ma'lum bo'ldiki, kontakt qurilmasida SO₂ ni SO₃ ga oksidlash jarayonida vanadiy katalizatoridan foydalanilganda V₂O₅ miqdori 5,45% dan 4,34% gacha kamayishi kuzatiladi. Bu esa katalizator faolligining pasayishiga olib keladi. Vanadiy katalizatori faolligining pasayishiga sabab past haroratlarda va aralashmada SO₂ ning yuqori miqdorda bo'lishi natijasida vanadiy sulfatining quyidagi reaksiya bo'yicha hosil bo'lishidir:



Bunda vanadiy to'rt valentli holatga o'tadi va SO₂ ning SO₃ ga oksidlanish tezligi pasayadi.

Aralashmalardan tozalangandan so'ng kuydirilgan gaz tarkibini tahlil qilish natijasida unda 4-8 mg/m³ mishyak va 19-20 mg/m³ ftor mavjudligi aniqlandi. Sulfat kislotasi ishlab chiqarishda oltingugurt dioksidini oksidlashda vanadiyli katalizatorlarning faolligining pasayishi bir qator sabablarga bog'liq bo'lib, ulardan asosiylari zararli ifloslantiruvchi moddalar bilan zaharlanishi va harorat ta'sirida yuzaga keladigan o'ziga xos sirt maydonini pasayishi natijasida o'zgarishi hisoblanadi. Ishlatilgan va ishlatilmagan vanadiyli katalizatorlarni faolligi laboratoriya sharoitida o'rganildi va natijalari 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

Turli manbalardan olingan vanadiyli katalizatorlarning faolligi "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ rux zavodidan olingan arbitraj namunasi

C _{SO2} , % (kirish)	X _{SO2} , % (chiqish)	Oksidlanish darajasi, %
9.1	6,8	74,7
11.0	8,4	76,4
11.0	9, 420°Cda	81,8

**Olmalik kon-metallurgiya kombinati" AJ rux zavodidagi
ishlatilgan vanadiyli katalizatori**

C_{SO_2} , % (kirish)	X_{SO_2} , % (chiqish)	Oksidlanish darajasi, %
7.8	5,1	65,4
15.6	10,1	64,7

**Olmalik kon-metallurgiya kombinati" AJ mis eritish zavodidan olingan
arbitraj namunasi**

C_{SO_2} , % (kirish)	X_{SO_2} , % (chiqish)	Oksidlanish darajasi, %
7.3	6,3	86,3
6.8	5,4	79,4
7.8	6,5	83,3
7.3	5,8	79,5

**Olmalik kon-metallurgiya kombinati" AJ mis eritish zavodidagi
ishlatilgan vanadiyli katalizatori**

C_{SO_2} , % (kirish)	X_{SO_2} , % (chiqish)	Oksidlanish darajasi, %
9,0	73	73,3
7.3	79	79,5
7.3	68	68,5
9.1	74	73,6

Vanadiy katalizatorlarining faolligini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki (2-jadval), tajribalarda ishlatilgan vanadiyli katalizatorlar harorat ta'siri va saqlash sharoitlarining yomonligi natijasida faolligini yo'qotganligi aniqlandi. Ularning SO_2 ni oksidlash darajasi yangi katalizatorlarga qaraganda o'rtacha 10% ga past. Shuningdek, fizik holatida ham o'zgarishlar, mayda zarrachalarning ko'payishi — 20–25% gacha kuzatilgan.

Natijada, ishlatilgan katalizatorlar TU-08-410-78 texnik talablariga javob bermaydi va ularni qayta ishlash, ya'ni V_2O_5 ni ajratib olib, rux va mis ishlab chiqarish korxonalarida qayta foydalanish zarurati mavjud.

Shunday qilib, olingan natijalar V_2O_5 konsentratsiyasining kamayishi, besh valentli vanadiyning to'rt valentli faol bo'lmagan birikmaga o'tishi, katalizator granularining faolligi va mexanik mustahkamligining pasayishiga olib kelishini asoslaydi.

V_2O_5 ni eritmaga ajratib olishning harorat bilan o'zgarishi. Ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni gidrometallurgiya usuli bilan tarkibidagi vanadiyni eritmaga o'tkazishning haroratga, vaqtga va kislota konsentratsiyasiga bog'liqligini laboratoriya sharoitlarida texnologik parametrlari aniqlandi. Jumladan haroratga bog'liqligi sulfat kislota 2 M eritmasida 2 soat davomida, S:Q=1:1 nisbatda o'rganildi. Buning uchun ishlatilgan vanadiyli katalizator maydalandi va 3 mm dan kichik bo'lgan zarracha o'lchamidagi fraksiya ishlatildi.


V₂O₅ ni eritmaga ajratib olishning harorat bilan o'zgarishi

Harorat °C	Filtrat bilan yuvish suvining hajmi, ml	Erimay qolgan qattiq chiqindining massasi, g	Erimay qolgan qattiq chiqindidagi vanadiyning miqdori, %	V ₂ O ₅ eritmaga o'tish darajasi, %
20-25°C	243	56.3	0.680	84,3
35-40°C	200	56.5	0.676	84,5
60-70°C	273	53.9	0.497	88.5

3-jadval natijalariga ko'ra haroratning 20-25°C dan 35-40°C gacha ko'tarilishi ishlatilgan vanadiyli katalizatoridan vanadiyni ajratib olish darajasiga deyarli ta'sir ko'rsatmadi. Biroq, haroratning 60-70°C gacha ko'tarilishi vanadiyning V₂O₅ shaklida ajralish darajasi 88,5% gacha oshishi kuzatildi.

Ishlatilgan vanadiyli katalizatoridan vanadiy besh oksidini eritmaga o'tkazishda haroratga bog'liq holda o'zgarishi shuni ko'rsatdiki, 60-70°C haroratda vanadiyni eritmaga o'tish darajasi 88,5%ni, 20-25°C va 35-40°C harorat oraliqlarida olib borilgan tajribalarda esa o'rtacha 84,4% ni tashkil etdi. Vanadiy miqdori 4,54% V₂O₅ dan 0,680% va 0,676% gacha, 60-70°C haroratda esa 0,497% gacha kamaydi. Olingan tajriba ma'lumotlardan kelib chiqib, haroratni 70°C va undan yuqori bo'lgan haroratlarda tajribalar olib borilsa vanadiyning eritmaga o'tish darajasi 90% va undan yuqori bo'lishi kutiladi.

Ishlatilgan vanadiy katalizatoridan vanadiy besh oksidini eritmaga o'tkazishni kislota konsentratsiyasiga bog'liqligi. Ishlatilgan vanadiy katalizatoridan vanadiy besh oksidini eritmaga o'tkazishni kislota konsentratsiyasiga bog'liqligini aniqlashda, S:Q=3:1 nisbatda, jarayon davomiyligi 2 soat, suv hamda sulfat kislota konsentratsiyasining 0,5M, 1M va 2M bo'lgan holatlarda maydalangan ishlatilgan vanadiyli katalizator yordamida o'rganildi. Olingan natijalar 2-rasmda keltirilgan.



1-rasm. V₂O₅ ni eritmaga ajratib olishning kislota konsentratsiyasiga bog'liqligi

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, suv orqali vanadiy besh oksidini eritmaga o‘tkazishda ishlatilgan vanadiyli katalizator g‘ovaklarida adsorbsiyalangan SO_3 ionlari hisobiga kislotali eritma hosil bo‘ladi, buning hisobiga V_2O_5 eritmaga 21% miqdorda o‘tdi.

Sulfat kislota konsentratsiyasining ortishi bilan V_2O_5 ni ajratib olish darajasining 90% gacha ortishi kuzatildi, bu eritmada vodorod ionlari konsentratsiyasining ortishi bilan izohlanadi. Masalan, sulfat kislotaning 0,5M konsentratsiyasida vanadiyning ajralish darajasi 63% ni tashkil etdi, tajribani kislota konsentratsiyasining 1 va 2M gacha ko‘tarib olib borilgan tajribada V_2O_5 ni eritmaga o‘tish darajasi mos ravishda 85% dan va 90% gacha ko‘tarildi.

V_2O_5 ni eritmaga ajratib olishning vaqtga bog‘liqligi. IVK dan vanadiyni eritmaga o‘tkazishning vaqtga bog‘liqligini aniqlashda 2, 4, 6 soat vaqt oraliqlarda 35°C haroratda, sulfat kislota konsentratsiyasi 2M va S:Q-1:1 nisbatda, zarrachalar o‘lchami 2-3 mm bo‘lgan katalizator yordamida tajribalar olib borildi. Olingan natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

V_2O_5 ni eritmaga ajratib olishning vaqtga bog‘liqligi

Vaqt, soat	Filtrat bilan yuvish suvining hajmi, ml	Erimay qolgan qattiq chiqindining massasi, g	Erimay qolgan qattiq chiqindidagi vanadiyning miqdori, %	V_2O_5 eritmaga o‘tish darajasi, %
2	211	59	0.788	74.0
4	200	56.5	0.429	85.9
6	215	60.5	0.314	89.7

4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, V_2O_5 ni eritmaga o‘tkazishda, jarayon davomiyligini 2 soatgacha oshirish vanadiyni ajratib olish darajasini 74,0% gacha oshiradi, jarayon davomiyligi 4 va 6 soat bo‘lganda esa bu ko‘rsatkich mos ravishda 85,9% va 89,7% ni tashkil etadi.

Maydalanmagan ishlatilgan vanadiyli katalizatoridan V_2O_5 ni eritmaga ajratib olish. Ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarning maydalamasdan granula holatida vanadiyni ajratib olish imkoniyatini aniqlash uchun sulfat kislotaning 7% va 10% konsentratsiyasiga ta’siri o‘rganildi, jarayon davomiyligi 2 soat, 20-25°C, 30-35°C, 60-70°C haroratlarda havo barbotaji bilan aralashtirildi, S:Q = 3:1.

Ishlatilgan vanadiyli katalizatorlardan vanadiyni ajratib olish darajasini oshirish maqsadida eritmaga o‘tkazish jarayonida 10% li H_2O_2 eritmasi qo‘shilgan holda ham olib borildi (5-jadval).

5-jadval

Maydalanmagan ishlatilgan vanadiyli katalizatoridan V_2O_5 ni eritmaga ajratib olish

IVK OKMK g	Harorati °C	C H_2SO_4 ,	Erimay qolgan qattiq chiqindidagi vanadiyning miqdori, %	V_2O_5 eritmaga o‘tish darajasi, %
1000	20-25	7 %	1.07	64.8
200	30-35	7 %	0.450	85
200	60-70	10%	0.356	88,2

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki (5-jadval), ishlatilgan vanadiyli katalizatoridan vanadiyni 7% li sulfat kislota eritmasi bilan tajriba olib borilganda V_2O_5 ning eritmaga o'tish darajasi 64,8% ni tashkil etadi, sulfat kislota eritmasiga 10% li vodorod peroksid eritmasi kiritilganda esa ajralish darajasi 85% gacha ko'tarildi.

Ishlatilgan vanadiyli katalizator granulalaridan vanadiyni 10% sulfat kislota eritmasi bilan 60-70°C da 2 soat davomida 10% li vodorod peroksid eritmasi yordamida mexanik aralashtirib tajribalar olib borilganda V_2O_5 eritmaga o'tish darajasi 88,2% gacha oshirish mumkinligini ko'rsatdi.

V_2O_5 ni 3 bosqichli usul bilan ajratib olish. Vanadiyning ammoniy vanadat holida ajralib chiqishida yuvish eritmasida sulfat kislota ko'p bo'lishi kaliy, natriy, temir, alyuminiy va boshqa sulfat tuzlari hosil bo'lishiga olib keladi. Shu sababli ishlatilgan vanadiyli katalizatorni qayta ishlash uchun sulfat kislota istemolini kamaytirish amaliy ahamiyatga ega.

Ma'lumki ishlatilgan vanadiyli katalizatorning teshiklarida adsorbsiyalangan holatda mavjud bo'lgan SO_3 ionlari sababli, uning tarkibida erkin sulfat kislota ko'rinishida 15,73% SO_3 aniqlangan. Ushbu SO_3 ni jarayoniga jalb qilish maqsadida uch bosqichli tajriba tadqiqotlar o'tkazildi. (6-jadval) Birinchi bosqichda ishlatilgan vanadiyli katalizator suvda 2 soat davomida 50°C haroratda vodorod peroksid ishtirokida havo barbotaji orqali ishlov berildi. Eritmaning pH=0 ga teng bo'ldi.

Ikkinchi bosqichda asosiy massaga 20% sulfat kislota eritmasi qo'shildi va 55-60°C haroratda yana 2 soat davomida aralashtirildi.

Uchinchi bosqichda 10% H_2SO_4 qo'shildi va yana 2 soat davomida 55-60°C haroratda aralashtirildi. pH=1. Har bir bosqichda tanlab eritishdan keyingi qattiq qoldiqni tahlil qilish natijalari 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

V_2O_5 ni 3 bosqichli usul bilan ajratib olish natijalari

Yuvish bosqichlari	Vanadiyning ulushi, %		Vanadiyni eritmaga o'tish darajasi, %
	Ishlatilgan vanadiyli katalizator	Qattiq chiqindi	
1 (suv)	3.04	1.81	40.46
2 (H_2SO_4 20%)	3.04	0.712	76.50
3 (H_2SO_4 10%)	3.04	0.642	78.88


3 bosqichli tajribada umumiy 55,75 g sulfat kislota sarf bo'ldi. Agarda 3 bosqichli yuvish uchun 1kg ishlatilgan vanadiyli katalizator uchun sulfat kislota 2M eritmasi ishtirokida tajribalar olib borilsa 197g sulfat kislota sarf bo'ladi.

Shunday qilib, erkin sulfat angidridni yuvish jarayoniga jalb qilish orqali sulfat kislota sarfini uch barobargacha kamaytirish mumkinligi aniqlandi

Vanadiyni ammoniy metavanadat ko‘rinishida ajratib olish. Ishlatilgan vanadiy katalizatoridan vanadiyni sulfat kislota bilan eritmaga o‘tkazish jarayonining maqbul parametrlarida ajratib olish tajribasi olib borildi. Bunday eritmadan ammoniy vanadat olish uchun eritma 25% li ammoniy gidroksid eritmasi bilan pH 5-5,5 gacha neytrallandi, filtrlandi va cho‘kma quritildi va qizdirildi.


Shunday qilib, cho‘ktirish jarayonida ishlatilgan SVD katalizatorini parchalash orqali olingan eritma tarkibidagi vanadiyning asosiy qismi jarayonning boshlang‘ich bosqichida pH =5,0-5,5 ga yetgunga qadar cho‘kmaga tushishi aniqlandi. Cho‘kmaga tushgan vanadiyning miqdori o‘rtacha 41% ni tashkil etdi (2-a, b-rasm).

Phase composition (Weight %) calc. by RIR method



a)

Elemental composition (Weight %) calc. by RIR method



b)

2-a, b rasm. Olingan mahsulotning rentgenogrammasi

Tahlil qilingan namunada (a-rasmda) V₂O₅ fazasiga mos keluvchi cho‘qqilar rentgen difraksion (XRD) diagrammaning 41% ini egalladi. Bu cho‘qqilar aniq va intensiv bo‘lib, V₂O₅ ning monoklin kristallik tuzilmasiga xos difraksion burchaklarda joylashgan. Diagrammadagi qolgan 59% cho‘qqilar esa boshqa birikmalar va komponentlarga tegishli bo‘lib, begona fazalarni ifodalaydi. Bu holat V₂O₅ namunada sof holda emas, balki boshqa moddalarning aralashmasida mavjudligini ko‘rsatdi.

b-rasmda asosiy komponent vanadiy bo‘lib, u 35,7% ni tashkil qiladi. Qolgan 64,3% esa boshqa oksidlar hamda qo‘shimcha ravishda kalsiy va temir aralashmalaridan iborat. Ushbu natijalar namunada aralash fazaviy holat va murakkab komponentli tarkib mavjudligini ko‘rsatadi, bu esa mazkur materialning qo‘llanilish sohalariga bevosita ta’sir qiladi.

Shunday qilib ajratib olingan vanadiy besh oksidini ferrovanadiy ishlab chiqarishga tavsiya etildi.

V₂O₅ ajratib olinganidan so‘ng eritma tarkibini tahlil qilish. Vanadiy besh oksidini ajratib olgandan so‘ng qolgan eritmani shu xolatida tashlab yuborish tuproqlar va suv havzalari uchun zaharli hisoblanadi chunki eritma tarkibida K₂O, Al₂O₃, Fe₂O₃ sulfat kislota tuzlari mavjud. Shu sababli eritmani qayta ishlash orqali

bug'latildi, quritish va qizdirishdan so'ng quruq tuz xolatiga keltirildi. Quruq tuz tarkibi tahlil qilindi. (7-jadval)

7-jadval

Quruq tuz aralashmasining spektral tahlili

№	Komponentlar	Miqdori	Aniqlashning eng past chegarasi (LLD)
1	Al_2O_3	1,23	0.0395
2	K_2O	8,63	0.0132
3	SiO_2	0,235	0.0171
4	K_2O	8,63	0.0128
5	CaO	0,458	0.0151
6	TiO_2	0,0105	0.0022
8	Fe_2O_3	0,0738	0.0012

Tahlil natijasiga ko'ra eritmada ajralgan quruq tuz aralashmasi tarkibi asosan suvda eruvchan ammoniy sulfat ($(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$) va kaliy sulfat (K_2SO_4) moddalardan iborat ekanligi aniqlandi. Bu tuzlar qishloq xo'jaligi uchun muhim agrokimyoviy ahamiyatga ega bo'lib, azotli va kaliyli mineral o'g'itlar sifatida qishloq xo'jaligida samarali qo'llanilishi mumkin. Shu sababli, mazkur aralashma ikkilamchi mahsulot bo'lib, o'g'it sifatida foydalanishga tavsiya etiladi. Bu yechim ekologik xavfsizlik, chiqindisiz texnologiyalarni qo'llash va resurslardan samarali foydalanish nuqtai nazaridan ham foydalidir.

Ishlatilgan vanadiyli katalizatorlardan V_2O_5 toza xolatda ajratib olish. Bu usulda ishlatilgan vanadiyli katalizatordan vanadiyni ajratib olishda tuzlash usuli bilan tajribalar olib borildi.

Buning uchun ammiakli suvning 25% li eritmasi bilan pH 6-6,5 gacha aralashtirib turib, 90-95°C haroratda 3 soat davomida ishlov berildi, cho'kma ajratib olindi va suv bilan aralashmalardan (SO_4^{2-} , K^+ , NH_4^+) yuvildi.


Yuvilgan cho'kma konsentratsiyasi 15 g/l bo'lgan ammiakli suvda 60-70°C haroratda 3 soat davomida eritildi. Olingan suspenziya filtrlandi. Filtratga kristall ammoniy nitrat qo'shildi, aralashtirildi va undan ammoniy vanadat ajralib chiqquncha tindirildi. Ammoniy vanadat cho'kmasi 120°C da quritildi va 550-600°C da 1,5 soat davomida qizdirildi.

Ammoniy vanadatni cho'ktirish, yuvish, quritish va kuydirish usuli bilan tanlab eritish eritmasidan V_2O_5 ajratib olish darajasi 100% ni tashkil etdi (3-a, b rasm).

Rentgen difraksion va elementar tahlil natijalariga ko'ra, tahlil qilingan namuna deyarli 100% sof V_2O_5 dan iborat. Difraktogrammadagi asosiy cho'qqilar standart V_2O_5 ma'lumotlar bazasi bilan to'liq mos keladi, bu esa uning kristallik tuzilmasi yuqori darajada ekanini ko'rsatadi. Elementar tahlilda ham vanadiy 56% va kislorod 44% nisbati aynan V_2O_5 tarkibiga mos keladi. Bu natijalar namunada boshqa kristall aralashmalar yo'qligini va V_2O_5 ning asosiy faza sifatida mavjudligini tasdiqlaydi.



a)



b)

3-a, b rasm. Olingan mahsulotning rentgenogrammasi

Dissertatsiyaning “Vanadiy ajratib olingandan so‘ng qattiq qoldiqdan tayyorlangan tashuvchi katalizatorni SO_2 ni SO_3 ga oksidlashtirish jarayoniga tadqiq qilish va ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni utilizatsiya qilish texnologiyasining asoslarini ishlab chiqish” deb nomlangan to‘rtinchi bobida, Vanadiy katalizatorini olish uchun ishlatilgan vanadiyli katalizatorlardan vanadiy besh oksidini eritmaga o‘tgandan keyingi qattiq qoldiqdan foydalanildi. Shu sababli qattiq qoldiqdan foydalanib yangi katalizator tayyorlandi. Bu respublikada tashuvchi katalizator tayyorlash uchun xomashyo bazasi mavjud emasligi va tarkibida Al_2O_3 va SiO_2 konsentratsiyasi bo‘yicha tabiiy diatomitlarga qo‘yiladigan talablarga javob beradigan qattiq qoldiq mavjudligi bilan bog‘liq.

Tayyorlangan katalizatorlarning faolligini aniqlash oqim qurilmasida 4000 soat-1 hajm tezligida va 485°C haroratda o‘tkazilgan laboratoriya tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, tayyorlangan katalizator namunalarning SO_2 ni SO_3 ga aylanish darajasi 600°C da qizdirilgan qattiq tashuvchi katalizatorlar uchun 73-80% ni tashkil qiladi.

Tayyorlangan namunalarning faolligini taqqoslash natijasida shuni xulosa qilish kerakki, faollik miqdori, g‘ovaklarning hajmi va o‘lchamiga bog‘liq bo‘lib, ular ma‘lum darajada komponentlarni aralashtirish usuli va shakllantirish kuchiga ham bog‘liq. Shunday qilib, ishlatilgan vanadiyli katalizatorlardan vanadiyni ajratib olingandan so‘ng qattiq qoldiqdan foydalanib, SO_2 ni SO_3 ga oksidlash uchun katalizatorlar tayyorlash natijasida, tabiiy diatomitni yuvilgan va 600°C da qizdirilgan qattiq qoldiq bilan almashtirish mumkinligi aniqlandi.

Taqqoslash uchun 8-jadvalda sanoatda ishlatilmagan SVD va ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarining xususiyatlari keltirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ishlatilgan vanadiyli katalizator g‘ovaklari hajmi ishlatilmaganlari uchun 1,586-1,618 sm^3/g dan 0,959-1,061 sm^3/g gacha, yuza maydoni 4,818-4,916 m^2/g dan 2,915-3,224 m^2/g gacha kamayadi va katalizator qo‘llanilishi natijasida g‘ovaklar o‘lchami 0,3507-2,3991 mm oralig‘ida saqlanib qoladi.

8-jadval

**Ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarning qattiq qoldig'idan tayyorlangan
katalizatorlarning xarakteristikasi**

Partiya raqami №	G`ovaklar hajmi sm <sup>3</sup> /g	Sirt maydoni, m <sup>2</sup> /Γ	G`ovaklar o`lchami, mm	Eslatma
1	1,618	4,916	0,3507 - 2,3991	Sanoatdagi ishlatilmagan vanadiyli katalizatori SVD
2	1,586	4,818	0,3507 - 2,3991	
3	1,061	3,224	0,3507 - 2,3991	Ishlatilgan vanadiyli katalizator SVD
4	0,959	2,915	0,3507 - 2,3991	
5	1,174	3,566	0,3507 - 2,3991	Yuvilgan qattiq qoldiqli katalizator
6	1,152	3,501	0,3507 - 2,3991	Yuvilmagan, 550°C da qizdirilgan
7	3,147	9,56	0,3507 - 2,3991	Yuvilgan qattiq qoldiqli katalizator
8	2,888	8,776	0,3507 - 2,3991	Yuvilmagan, 600°C da qizdirilgan
9	2,069	6,292	0,3507 - 2,3991	70 g yuvilgan tashuvchi katalizator va 30 g qurum
10	2,116	6,427	0,3507 - 2,3991	70 g yuvilmagan 600°C da qizdirilgan tashuvchi katalizator va 30 g qurum

Yuvilgan SVD katalizatori qoldiqlaridan tayyorlangan katalizatorlar (3-namuna) va 550°C da qizdirilgan hamda yuvilmagan va 550°C da qizdirilgan katalizatorlar g'ovaklar hajmi 1,152-1,174 sm³/g, yuza maydoni 3,501-3,566 m²/g, g'ovaklar o'lchami 0,3507-2,3991 nm ni tashkil etadi (5-6 namuna). Katalizator namunalari uchun ham xarakteristikalarining o'zgarishi shunga o'xshash.

Qizdirish harorati 600°C gacha ko'tarilganda g'ovaklar hajmi 2,888-3,147 sm³/g, sirt yuzasi 8,776-9,560 m²/g ni tashkil etadi, bu qizdirish harorati 550°C ga nisbatan ancha yuqori.

Xuddi shunday, 70 g ishlatilgan vanadiy katalizator tashuvchisi va 30 g oq qurumdan olingan va 600°C da qizdirilgan katalizatorlarda g'ovaklar hajmi va sirt maydoni ko'rsatkichlari ham ishlatilmagan va ishlatilgan katalizatorlarga qaraganda yuqori.

Laboratoriya oqim qurilmasida ishlab chiqilgan katalizatorlarning faolligi 4000 soat-1 hajm tezligida va 485°C haroratda o'rganildi.

Buning uchun kvarsli reaktorga 10 ml miqdorida -2-+1 mm donadorlikdagi katalizator va 20 ml miqdorida -2-+1 mm donadorlikdagi kvars solindi. Tayyorlangan katalizatorlar partiyalarining faolligini aniqlash natijalari 9-jadvalda keltirilgan.

550°C da tayyorlangan katalizator partiyalarining faolligini aniqlash natijalari


№	Gaz aralashmasidagi SO ₃ komponentining miqdori				SO ₃ ga oksidlanish darajasi
	Katalizatorgacha		Katalizatordan keyin		
1	120	8,94	480	2,39	73
2	95	11,0	520	2,21	80
3	140	7,7	550	2,1	73
4	110	9,66	380	3,0	68,9

Ishlatilgan vanadiyli katalizatoridan vanadiyni ajratib olingandan so‘ng qattiq tashuvchida olingan, yuvilgan va 550°C da qizdirilgan 5-partiya katalizatori yuqori faollikni namoyon qiladi (73-80%).

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, tanqis bo‘lgan tabiiy diatomitni ishlatilgan vanadiyli katalizatordan vanadiy ajratib olingandan so‘ng yuvilgan va 550°C da qizdirilgan qattiq qoldiq bilan almashtirish mumkin.

Ishlatilgan vanadiyli katalizatordan vanadiy katalizatorini olish usuli O‘zR №7744 patenti bilan himoyalangan.

Ishlatilgan vanadiyli katalizatordan vanadiy besh oksidi olish va qattiq qoldiq asosida katalizatorlar olish bo‘yicha olib borilgan texnologik tadqiqotlar natijasida texnologik sxema ishlab chiqildi (4-rasm).



4-rasm. Ishlatilgan vanadiyli katalizatorni qayta ishlashning asosiy texnologik sxemasi

Laboratoriya tadqiqotlari AO «AGMK»da SPECTRO-GENESIS Analytic analizatori va Toshkent kimyo-texnologiya institutida RIGAKU NEX CGEDXAF

Analyzer yordamida olib borildi. Qator eksperimentlar «OKMK» AJning rux zavodi laboratoriyasida bajarildi.

Ishlatilgan vanadiyli katalizatorlardan vanadiy besh oksidini ajratib olish jarayonida sulfat kislotaning yuqori miqdorda qo'llanilishi K, Na va Al kabi elementlarning sulfat tuzlari hosil bo'lishiga olib keladi. Ma'lumki, ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarning teshiklarida SO_3 ionlari mavjud. Ushbu SO_3 ni jarayonga jalb etish maqsadida uch bosqichli eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi. Tadqiqot natijalari 10-jadvalda keltirilgan.

10-jadval

V_2O_5 ning eritmaga o'tish darajasining sulfat kislotasi konsentratsiyasiga bog'liq holda o'zgarishi.

$G=100\text{r}; S:Q=1:1; C=2\text{c}; V=4,54\%$

$\text{H}_2\text{SO}_4, \text{M}$	Filtrat miqdori, ml	Qattiq qoldiq, g	Filtrat tahlili $\text{V}_2\text{O}_5, \text{r}$	V_2O_5 ni eritmaga o'tishi
0	395	64,7	1,67	21
0,5	378	62,36	5,05	63
1	250	57,03	7,22	90

Natijalarga ko'ra, optimal sharoitlarda V_2O_5 ajratish darajasi yuqori bo'lib, vanadiy besh oksidini eritmaga o'tish darajasi 90%ni tashkil etdi.

Demak, «OKMK» AJning rux zavodi ishlab chiqarish laboratoriyasida olib borilgan ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni qayta ishlash bo'yicha olingan natijalar ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni utilizatsiya qilishning texnik imkoniyati mavjudligini tasdiqladi va bu natijalar tajriba-sanoat uskunasi uchun vaqtinchalik texnologik reglament ishlab chiqishga asos bo'ldi.

O'tkazilgan texnik-iqtisodiy hisoblar ishlatilgan vanadiyli katalizatorni qayta ishlab, ular asosida yangi vanadiyli katalizatorlar olish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

XULOSALAR

1. Chiqindi metallurgiya gazlaridan sulfat kislotasi ishlab chiqarishda ishlatilgan vanadiyli katalizatorlarni utilizatsiya qilish bo'yicha ilmiy va texnologik asoslar ishlab chiqildi. Jarayonning optimal texnologik parametrlari aniqlanib, V_2O_5 ni ajratib olish darajasi 90 foizdan yuqori bo'lgan.

2. Vanadiyli katalizator chiqindilarini xavfsiz utilizatsiya qilish texnologiyasi ishlab chiqildi. Natijada po'latni ligirlash uchun mo'ljallangan ferrovanadiy tarkibida 43% V_2O_5 , 18,7% Fe_2O_3 , 4,73% Al_2O_3 hamda yangi katalizator sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan 98,3% tozalikdagi V_2O_5 olingan.

3. Vanadiyli katalizator chiqindilarini qayta ishlashdan hosil bo'lgan qattiq qoldiqni yangi katalizatorlar ishlab chiqarishda import o'rnini bosuvchi, tashuvchi sifatida ishlatish bo'yicha ilmiy asoslar ishlab chiqilgan.

4. 600°C da termik ishlov berilgan qattiq chiqindi asosida sintez qilingan vanadiyli katalizator yetarli darajada g'ovaklar tuzilishga va katta sirt maydoniga ega bo'lib, o'z faolligi jihatidan sanoatda qo'llaniladigan sulfo-vanadiyli diatomit katalizatoridan qolishmaydi, balki undan foydalanilgan holda ekologik xavfsiz va samarali texnologiyalarni ishlab chiqishga zamin yaratgan.

5. Vanadiyli katalizator chiqindilarini qayta ishlovchi tajriba-sinov uskunasi uchun vaqtinchalik texnologik reglament ishlab chiqildi va tasdiqlangan.

6. Vanadiyli katalizator chiqindilarini qayta ishlash bo'yicha dastlabki texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar jarayonning yuqori samaradorligini ko'rsatgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.18/30.11.2022.Т.153.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ В НАУЧНОМ
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И
ПРИРОДООХРАННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

ЯКИБОВА ДИЛАФРУЗ ХУСНИТДИНОВНА

**РАЗРАБОТКА КОМПЛЕКСНОЙ ТЕХНОЛОГИИ ПЕРЕРАБОТКИ
ОТРАБОТАННЫХ ВАНАДИЕВЫХ КАТАЛИЗАТОРОВ
ПРОИЗВОДСТВА СЕРНОЙ КИСЛОТЫ ИЗ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКИХ
ГАЗОВ**

**11.00.05 – Охрана окружающей среды и рациональное использование природных
ресурсов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема докторской диссертации зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером №B2025.1.PhD/T3052.

Диссертационная работа выполнена в Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице (www.eco.ilm.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научные руководители:

Дадаходжаев Абдулла Турсунович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Алимов Зикрилла Бобамуратович
доктор технических наук

Пулатов Хайрулла Лутфуллаевич
доктор химических наук, профессор

Ведущая организация:


Ферганский государственный технический университет

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета №18/30.11.2022.Т.153.01 в НИИ природоохранных и природоохранных технологий «24» октябрь 202 5 года в 14⁰⁰ часов.
(Адрес: 100000, город Ташкент, Чиланзорский район, улица Бунедкор, 7А, телефон (71)-277-69-83, факс: (71)277-89-22, e-mail:ecoilm@gov.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института Окружающей среды и природоохранных технологий Республики Узбекистан (Адрес: 100043, г.Ташкент, Чиланзарский район, проспект Бунёдкор, дом-7А, Тел.: (71) 277-69-83, факс: (71)277-89-22, e-mail:ecoilm@gov.uz.)

Автореферат диссертации разослан «10» октябрь 202 5 года.

(Протокола рассылки № 4 от «13» июнь 202 5 года)



Пулатов Б.А.
Председатель научного совета
по присуждению ученой степени,
д.т.н, доцент

Самиев Л.Н.
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н.

Муратов Ш.О.
Председатель Научного семинара Научного
совета по присуждению ученых степеней
д.т.н, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации (PhD) доктора философии)

